

**CHO'L YAYLOVLARI TUPROQLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH  
VA HOSILDORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

*Maxkamova D.Yu.*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

Ma'lumki, yaylovlardan samarali va oqilona foydalanish, tuproqlar unumdorligini saqlash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan, lalmi yerlar va yaylovlardan to'g'ri foydalanish, meliorativ holatini yaxshilashni tashkil qilish birinchi darajali vazifalardan hisoblanadi.

Xozirgi kunda dunyo miqyosida unumdor yerlar maydoni kamayib borishi kuzatilmoqda. Yaylovlar inson ta'sir natijasida bevosita yoki bilvosita ifloslanmoqda, sho'rlanish va cho'llanish jarayonlari kuchaymoqda, suv va shamol eroziyasi tuproq unumdor qatlamni emirilishiga olib kelmoqda.

Yaylovlarda muhim tabiiy resurslardan biri o'simlik dunyosi bo'lib, undan to'g'ri foydalanish orqali o'ziga xos bo'lgan tiklanish xususiyatini yo'qotmaydi. Tuproq unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar faqat sug'oriladigan maydonlarda amalga oshirilmasdan, yaylov va pichanzorlar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

O'zbekistonda yaylovlar 20,8 mln. gektarni egallaydi, shundan 17,4 mln.gektari cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi. Chorvachilikda yaylovlardan me'yorda foydalanmaslik, eroziya, mollarni yaylovlarda ortiqcha boqish va boshqa antropogen ta'sirlar natijasida ozuqa hajmini kamayishi (degressiyasi) sodir bo'ldi. 20,8 mln. ga yaylovdan 16,4 mln. gektari (78%) degressiyaga uchragan bo'lib, undan 9,3 mln. ga maydondagi yem-hashak ozuqasi 20-30%; 5 mln. ga maydondagi 30-40%; 2,1 mln. ga yoki 40% dan ortiq maydondagi yem-hashak ozuqasi degressiyaga uchragan [1,4]. Yaylovlar degressiyasi asosan Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida kuzatilmoqda. 70% dan ortiq maydon, shu jumladan, uning uchdan bir qismi kuchli darajada degressiyaga uchragan. Ayniqsa, tog' yaylovlaridan haddan tashqari jadal foydalanish o'z navbatida o'simliklar degradatsiyasiga olib kelmoqda va buning oqibatida jala oqimlari ko'payishiga va sellar takrorlanishining ortishiga olib kelmoqda [1].

Yaylov resurslaridan samarali foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash hamda ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or texnologiyalar va samarali uslublardan foydalanish hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biridir [2,6].

Respublikamizda yaylovlardan yuqori va sifatli hosil olish, shu bilan bir qatorda tuproq unumdorligini saqlash hamda qayta tiklash, uni muhofaza qilish, atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Qayd etilgan muammolarni qonunlar asosida to'g'ri va har tomonlama bartaraf etilishi mamlakatimiz agrosanoat majmuini iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi, ekologik holatni yaxshilaydi, eksport salohiyatini oshiradi, import mahsulotlariga bo'lgan talabni kamaytirib, xalqimiz farovonligi yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizning cho'l yaylovlarining katta qismini qumli cho'llar tashkil qiladi. Qizilqum cho'li qorako'lchilikni, echkichilikni tuyachilikni rivojlantirishning katta potensialiga ega bo'lib, o'ziga xos tuproq-iqlim va o'simlik qoplamiga ega. Qumli cho'lda efemer, efemeroidlar, yarim buta, buta o'simliklar keng tarqalgan. O'simlik dunyosining boshqa cho'l yaylovlariga nisbatan boyligi, yilning istalgan mavsumida yaylovda ozuqaning mavjudligi qumli cho'l yaylovlarining ahamiyatini yanada oshiradi. Qumning namlikni juda yaxshi singdirishi, fizik bug'lanishning kamligi o'simliklar uchun qulay sharoit tug'diradi. Shu bois, qumli cho'l yaylovlarining hosildorligi boshqa cho'l yaylov tiplariga nisbatan ancha barqaror, ya'ni turli yillarda quruq yaylov ozuqasi massasi gektaridan 1,7-2,4 s ni tashkil qiladi. Qumli cho'l yaylovlarida iloq, chitir, lolaqizg'aldoq singari qimmatli ozuqabop efemer turlar, astragallar, yantoq singari dag'al poyali o'tchil turlar, oq va qora saksovul, qandim, cherkez singari buta o'simliklar va cho'g'on, singren kabi ozuqabop yarim buta o'simliklar ko'p uchraydi. Navoiy, Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog'iton respublikasi yaylovlari asosan Qizilqum cho'lida joylashgan [1,4].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, suv tanqisligi, haroratning keskin kontinentalligi, tuproq tarkibidagi gumus va harakatchan azot miqdorining o'ta kamligi sho'rlanishning kuchliligi cho'l ekotizimining ekologik jihatdan juda mo'rtligini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday xo'jalik faoliyati cho'l yaylovlari o'simlik qoplamining tanazzuliga sabab bo'ladi [2,3,5].

O'simlik qoplamida ozuqabop turlarning tobora kamaya borishi, ozuqaviy xususiyatga ega bo'lmagan turlarning tobora ko'payishi, buta va yarim buta turlarning o'rnini efemer va bir yillik qisqa vegetatsiyaga ega turlarning egallashi adir va gipsli cho'l yaylovlarining tanazzulidan dalolat bersa, qumli cho'l yaylovlarining tanazzuli tufayli harakatchan qumlar va barxanlar paydo bo'ladi.

Cho'l yaylovlari o'simlik qoplamining nafaqat chorva hayvonlari uchun ozuqa sifatida, balki global iqlim o'zgarishi sharoitida o'ta muhim ekologik ahamiyatga ega ekanligi keyingi yillarda xorij mamlakatlar olimlari hamkorligida olib borilgan tadqiqot natijalari ham isbotlamoqda. O'simlik qoplami nisbatan zich bo'lgan adir yaylovlarining har bir metr kvadrati yil davomida 350-400 g karbonat anhidrid gazini utilizatsiya qilish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich gipsli cho'lda 280-300 g, qumli cho'lda esa 250-280 g ekanligi aniqlandi. Cho'l yaylovlari tabiiy

florasida farmasevtika sanoati uchun qimmatli qator dorivor o'simliklar ham keng tarqalgan. Bular jumlasiga kovrak, cherkez, kovul, qizil bo'yan, cho'l dastarboshi, o'lmas o't va qator boshqa turlarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yaylovlardan maqsadli foydalanilishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirish, fermerlar daromadini oshirish, xalqimiz turmushini farovonlashtirish, davlatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari ro'yxati:**

1. Boboqulov N.A., Rabbimov A., Toshmurodov A. Cho'l yaylovlaridan samarali foydalanish. «Yaylovlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning institutsional masalalari». T-2013. –B.40-42.
2. Maxkamova D.Yu., Abdujalilova O.X. Cho'l xududi tuproqlarning sho'rланishi, sizot suvlari va sifat tarkibi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi №5, 2001y. –B. 129-132.
3. Maxkamova D.Yu., Ro'zimatova S.E., Karimov B.S. [Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillar](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. ООО «Oriental renaissance», №2. –B. 488-494.
4. Maxmudov M.M. Qorako'lichilik yaylovlarining hozirgi ahvoli va istiqbolli fitomeliorantlarni tanlash kriteriyalari//. Cho'l-yaylov chorvachiligini rivojlantirish muammolari. Samarqand, 2005-187-189.
5. Махкамова Д.Ю. Почвенно-мелиоративные условия исследуемой территории Джизакской степи. Научное обеспечение устойчивого развития агропромышленного комплекса: материалы международной научно-практической конференции посвященной памяти академика РАН В.П. Зволинского и 30-летию создания ФГБНУ «ПАФНЦ РАН» 2021. –С. 633-637.
6. Кузиев Р. Почвенные ресурсы Узбекистана и перспективы развития почвенных исследований. Т., 2010 г.